



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

LEXICOGRAPHIC AND LINGUOCULTURAL REPRESENTATION OF PERSONAL NAMES IN ENGLISH AND UZBEK ANTHROPNYMIC DICTIONARIES

Juraeva Iroda Akhmedovna

Associate professor, candidate of philological sciences

Department of Foreign language and literature

National University of Uzbekistan

e-mail: irodajuraeva@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-2480-7979>

Annotatsiya

Mazkur tezisda ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik lug‘atlarning leksikografik hamda lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida antroponimlarning lug‘atlarda ifodalanish usullari megastruktura, makrostruktura va mikrostruktura doirasida o‘rganildi. Tahlillar ingliz antroponimik lug‘atlarida formal, pragmatik, etimologik va tasviriy parametrlar tizimli ravishda berilishini, o‘zbek antroponimik lug‘atlarida esa semantik va lingvomadaniy yondashuv ustuvor ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: antroponim, leksikografiya, mikrostruktura, pragmatika, semantika, etimologiya, lingvomadaniyat.

Abstract

This thesis presents a comparative analysis of the lexicographic and linguocultural features of anthroponymic dictionaries in English and Uzbek. In the course of the research, the methods of representing anthroponyms in dictionaries were examined within the framework of megastructure,



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

macrostructure, and microstructure. The analysis revealed that English anthroponymic dictionaries systematically provide formal, pragmatic, etymological, and descriptive parameters, whereas Uzbek anthroponymic dictionaries predominantly emphasize semantic and linguocultural approaches.

Keywords: anthroponym, lexicography, microstructure, pragmatics, semantics, etymology, linguoculture.

Zamonaviy tilshunoslikda antroponimlar faqat nominativ birlik emas, balki ijtimoiy, madaniy va tarixiy axborotni o'zida mujassam etuvchi murakkab til birliklari sifatida qaraladi. Shaxs nomlari xalqning mentaliteti, qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvistik vositadir. Shu sababli antroponimlarning lug'atlarda qanday ifodalanishi ularning lingvomadaniy tabiatini ochishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimik lug'atlarni qiyosiy o'rganish turli til tizimlaridagi nomlash tamoyillarini aniqlash hamda ularning leksikografik tavsif xususiyatlarini belgilashga xizmat qiladi.

Antroponimlarni o'rganishda Yu.N. Karaulov, Yu.D. Apresyan, S.V. Grinev-Grinevich, P.Xenks, E.Viskomb kabi olimlarning nazariy qarashlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Yu.N. Karaulov leksikografik parametrlarni axborotning mustaqil kvantlari sifatida izohlaydi. S.V.Grinev-Grinevich esa mikrostrukturani lug'at yozuvining eng muhim qismi sifatida ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida antroponimika masalalari bo'yicha E. Begmatov, B.Yo'ldoshov Sh. Safarov, D.U. Ashurova kabi olimlar muhim ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Xususan, E.Begmatov o'zbek ismlarining semantik va tarixiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Leksikografiya nazariyasida lugʻatlarning strukturaviy tashkil etilishi masalasi koʻplab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, Yu. N. Karaulov, S. V. Grinev-Grinevich va Yu. D. Apresyan lugʻat maqolalarining ichki va tashqi tuzilishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning qarashlariga koʻra, lugʻat birliklarini tavsiflash tizimi uch asosiy darajada amalga oshiriladi: megastruktura, makrostruktura va mikrostruktura. Mazkur model keyinchalik onomastik va antroponimik lugʻatlar tahliliga ham tatbiq etilgan. Shu nuqtai nazardan ingliz antroponimik lugʻatlarida atoqli otlarning tavsifi ham aynan ushbu uch daraja asosida tashkil etiladi:

Megastruktura -lugʻatning umumiy tashkil etilishi;

Makrostruktura -maqolalarning joylashuvi;

Mikrostruktura - lugʻat maqolasining ichki tuzilishi.

Antroponim lugʻatlarini mikrostruktura doirasida P. Xenks [5] va E.G. Viskomb [13] tasnifiga koʻra quyidagi parametrlar ajratiladi:

Formal parametrlar ismning fonetik, grafik va morfologik xususiyatlarini ifodalaydi. Bu parametrlar ayniqsa P.Xenks tomonidan antroponimik lugʻat maqolasining asosiy elementi sifatida koʻrsatilgan. Masalan, Rachel[ˈreitʃəl], Edmund - Ed, Eddie, Ted. Bu holat ingliz tilida variantlikning yuqori darajada rivojlanganligini koʻrsatadi.

Pragmatik parametrlar ismning qoʻllanish chastotasi, hududiy tarqalishi va zamonaviylik darajasini ifodalaydi. Bu yondashuv P. Xenks lugʻatlarida keng qoʻllanilgan. Masalan, Emily - zamonaviy va faol qoʻllaniladi; Percy - tarixiy va kam qoʻllanadi.

Etimologik parametrlar ismning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishini koʻrsatadi. Bu jihat E.G. Viskomb tadqiqotlarida batafsil yoritilgan[13]. Masalan:

Clara - lotin tilidan kelib chiqqanligini koʻrish mumkin. Tasviriy parametrlar mashhur shaxslar orqali ismning madaniy qimmatini ochib beradi. Bu usul ham



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

P. Hanks tomonidan antroponimik tavsifning muhim qismi sifatida ko‘rsatilgan. Masalan, Francis - Francis Bacon bilan bog‘liqdir.

O‘zbek antroponimik lug‘atlarida ham leksikografik jihatdan megastruktura, makrostruktura va mikrostruktura elementlari mavjud. Biroq ular ingliz lug‘atlaridagi kabi qat’iy ilmiy-parametrik tizim asosida emas, ko‘proq semantik va madaniy tavsif asosida shakllangan.

E.Begmatovning “O‘zbek ismlari ma’nosi” lug‘atida ham strukturaviy jihatdan: megastruktura lug‘atning umumiy tuzilishi kirish, asosiy qism, ilovalar, makrostruktura ismlarning alifbo tartibida joylashuvi hamda mikrostruktura har bir ismning ma’nosi, kelib chiqishi va izohi mavjud. Shu bilan bir qatorda strukturalar ingliz lug‘atlaridagi kabi qat’iy ilmiy-parametrik tizim asosida berilgan, yana ko‘proq semantik va lingvomadaniy tavsif asosida shakllangan. Masalan, Shahnoza - “nazokatli ayol”, Baxtiyor - “baxtli inson” Zafar - “g‘alaba”. Bu nomlarda ijobiy baholovchi semantika ustuvor. Shuningdek, Gulnora - “gul + yorug‘lik”, Muhammadamin - diniy va axloqiy qadriyatlarni aks ettiradi. O‘zbek ismlarida affikslar ham muhim lingvomadaniy yuklamaga ega: -bek (maqom, hurmat), -oy (go‘zallik), -gul (estetiklik). Masalan, Oybek, Nodirbek, Gulchehra.

E. Begmatov antroponimlarning shakllanishida motivatsiya omiliga alohida urg‘u beradi[3]. Uning fikricha, har bir ism ma’lum bir sabab, istak yoki ijtimoiy-madaniy ehtiyoj asosida paydo bo‘ladi. Masalan, Tursun - bolaning yashab qolish istagini ifodalaydi; To‘xta - oiladagi yo‘qotishlarning to‘xtashiga ishora qiladi; Ulug‘bek - ulug‘lik va buyuklik timsoli; Navro‘z, Hayitboy, Ramazon - milliy va diniy qadriyatlar bilan bog‘liq nomlardir. Bu misollardan o‘zbek antroponimik lug‘atlarida ismning ichki semantikasi, nominativ motivi va lingvomadaniy mazmuni ustuvor ekanligini ko‘rish mumkin.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Shuningdek, antroponimlar faqat ism sifatida emas, balki kengroq tizim laqab, taxallus, patronim va familiya bilan birgalikda beriladi. Bu holat o‘zbek antroponimik lug‘atlarining makro va mikrostrukturaviy tashkilida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, ingliz antroponimik lug‘atlarida tarixiy-etimologik va formal tavsif kuchli bo‘lsa, o‘zbek antroponimik lug‘atlarida semantik motivatsiya va etnomadaniy izohlar ustuvorlik qiladi. Shu jihatdan o‘zbek antroponimik leksikografiyasi milliy mentalitet va xalq dunyoqarashini yoritishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Ingliz va o‘zbek antroponimik lug‘atlari qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular strukturaviy jihatdan ma’lum umumiyliklarga ega. Avvalo, har ikkala lug‘atda ham antroponimlar alifbo tartibida joylashtiriladi hamda lug‘at maqolalari megastruktura, makrostruktura va mikrostruktura asosida tashkil etiladi. Har bir lug‘at maqolasida ismning shakli, ma’nosi va kelib chiqishi haqida muayyan ma’lumot beriladi.

Biroq mazmuniy va funksional jihatdan ular o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Ingliz antroponimik lug‘atlarida asosiy e’tibor ismning formal, fonetik va etimologik tavsifiga qaratiladi. Masalan, ismning talaffuzi, variant shakllari, tarixiy manbasi va qo‘llanish chastotasi batafsil yoritiladi. Bu lug‘atlar ko‘proq ilmiy-parametrik tizim asosida shakllangan. O‘zbek lug‘atlarida esa bunday pragmatik tavsif kamroq uchraydi, buning o‘rniga aksiologik, ya’ni baholovchi ma’no ustuvorlik qiladi.

O‘zbek antroponimik lug‘atlarida esa, E. Begmatov ta’kidlaganidek, asosiy maqsad ismning semantik mazmuni va nominativ motivatsiyasini ochib berishdan iborat[4]. Lug‘atda nafaqat adabiy shakllar, balki shevaga xos variantlar ham beriladi. Shuningdek, ismning qaysi tilga mansubligi, etimologik



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

manbasi, qisqargan shakllari va qo‘shma ismlarning ichki tarkibi ham ko‘rsatib boriladi.

Yana bir muhim farq shundaki, ingliz lug‘atlarida erkak va ayol ismlari ko‘pincha alohida yoki grammatik jihatdan farqlangan holda berilsa, o‘zbek antroponimik lug‘atlarida ular ko‘pincha bir umumiy tizimda keltiriladi. O‘zbek lug‘atlarida ayol ismlarini maxsus belgilar bilan ajratib beriladi.

Demak, ingliz antroponimik lug‘atlari ko‘proq tarixiy-etimologik va formal tavsifga yo‘naltirilgan bo‘lsa, o‘zbek antroponimik lug‘atlari semantik, motivatsion va lingvomadaniy xususiyatlarni chuqurroq yoritadi. Bu esa har ikki xalqning nomlash an‘analari va milliy dunyoqarashidagi o‘ziga xosliklarni yaqqol namoyon etadi.

Bundan tashqari, ingliz ismlarida variant shakllarning ko‘pligi kuzatiladi. Masalan, bir ismning qisqartirilgan yoki erkalash shakllari keng qo‘llaniladi. O‘zbek antroponimikasida esa variantlikdan ko‘ra affiksial ma‘no faolroq bo‘lib, -bek, -oy, -gul kabi qo‘shimchalar orqali ismga qo‘shimcha semantik va madaniy yuklama beriladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ingliz va o‘zbek antroponimik lug‘atlarining qiyosiy tahlili ular orasida muhim leksikografik farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ingliz lug‘atlarida formal, pragmatik va etimologik parametrlar kompleks tarzda ifodalansa, o‘zbek lug‘atlarida shaxs nomlarining semantik va lingvomadaniy talqini yetakchi o‘rin egallaydi. Shuningdek, o‘zbek antroponimik lug‘atlarida ham megastruktura, makrostruktura va mikrostruktura elementlari mavjudligi aniqlandi. Biroq ularning tashkil etilishi ingliz lug‘atlariga nisbatan ko‘proq milliy-madaniy va semantik yondashuvga asoslangan. Bu esa antroponimlarni o‘rganishda til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi hamda qiyosiy leksikografiya rivojida muhim ilmiy ahamiyatga ega.

